

№ 743

TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATILISHI TO'G'RISIDA ABONENT SHARTNOMASI

Yuridik shaxslar (shu jumladan, budget tashkilotlari) uchun

«20» 01. 2022 y.

Denov
(shahar, tuman)

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi) tomonidan berilgan litsenziya, "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi Ustavi va Ishonchnomasi hamda "O'zbektelekom" AK Surxondaryo filiali Nizomi asosida faoliyat yurituvchi "O'zbektelekom" AK Surxondaryo filiali direktori Бердиев А. nomidan Денов Т. telekommunikatsiya bog'lamasi boshlig'i Норкулов Ш. Т. (bundan buyon "Operator" deb ataluvchi) bir tomondan,

Yuridik shaxs (Xususiy tadbirkor)	
Talabnoma beruvchining nomi:	<u>Денов Т. Ш. И. И. И.</u>
Manzili:	<u>С. Отабоев. С. Ш. Токимов. И. И. И.</u> (xususiy turar joy yoki ijaraga olingan binoning manzili)
Raxbarning lavozimi, F. I. Sh.	<u>Норкулов Ш. Т.</u> (korxona raxbarining uy manzili va telefoni)

(bundan buyon "Abonent" deb ataluvchi) ikkinchi tomondan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va «Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ida telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish Qoidalariga» binoan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

Operator telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish, Abonent esa shartnoma shartlariga muvofiq ushbu xizmatlar uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirish majburiyatini zimmasiga oladi.

1.1 Abonentga ajratilgan abonent raqamlari ro'yxati. 41-49-121, 41-49-171-103 Тез ёргачи.

ulardan ma'lumot xizmatlari uchun 41-49-121, 41-49-171.

1.2 Abonent (oxirgi) qurilmasi turi, ularning soni, o'rnatilish joyi

(telefon, uyali telefon, modem, faks, teleks, internet va boshqalar)

1.3 2022 y. 31 Dekabr gacha xizmat ko'rsatiladi.

(oxirgi qurilmasi, taqsimlash shkafi, bino, idoraviy ATS...)

1.4 To'g'ridan-to'g'ri simlar

(soni, ularning raqamlari)

1.5 Parallel qurilmalarning soni, raqami

1.6 Ko'rsatilgan xizmatlar to'lovi bo'yicha QOS mavjudligi 9000000 (Тўққиз. минчи) ККС. 117391304
(QOS bilan, QOSsiz)

1.7 Abonent toifasi

(budget, xo'jalik hisobidagi)

2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

2.1 Operator quyidagilarga majbur:

2.1.1 O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi standartlari, qoidalar va normalariga muvofiq o'z vaqtida, belgilangan sifat darajasida telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishga.

2.1.2 Abonentning stansiya texnik nosozliklari va liniya-kabel shikastlanishlarini bartaraf etishga arizalarni qabul qilish, ro'yxatga olish va ularni 20 kundan oshmagan, normativ muddatlarda bajarilishini ta'minlashga.

2.1.3 Telekommunikatsiya tarmog'i Abonentning aybisiz buzilgan hollarda, Abonent tomonidan ta'mirlash byurosiga ariza berilgan kundan boshlab, abonent qurilmasining ishlamagan butun davri uchun abonent to'lovlarini qayta hisob-kitob qilishga.

2.1.4 Stansiya va liniya-kabel inshootlarini rejadagi rekonstruksiya qilish ishlari natijasida telekommunikatsiya tarmog'i vaqtincha uziladigan hollarda, Abonentlarni ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilishga.

2.1.5 Texnik sabablarga ko'ra, abonent raqamining o'zgartirilishi to'g'risida taqdim etilganligi haqidagi xabarnoma bilan Abonentni yozma ravishda yoki ommaviy axborot vositalari orqali 10 kun ichida xabardor qilishga.

2.1.6 Yangi stansiyalarning joriy etilishi va telekommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilinishi munosabati bilan Abonentning rozilgisiz, lekin amaldagi «Qoidalar»ga asosan oldindan xabardor qilgan holda, telefon raqamlarini bepul almashtirishga.

2.1.7 Abonentning arizasiga ko'ra, arizada keltirilgan muddatga raqamni saqlagan holda, telefonni vaqtincha o'chirishga. Bunda raqamni saqlanish vaqti uchun abonent to'lovi oldindan undiriladi.

2.1.8 Mahalliy telefon aloqasi xizmatlariga vaqtbay haq to'lash tizimidan foydalangan holda hisob varag'ini chiqarishda haq to'langan davrga alohida haq uchun batafsil izohlangan hisobni taqdim etishga.

2.1.9 Operatorida ro'yxatga olinmagan yoki muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan Abonent tomonidan foydalaniladigan oxirgi qurilmalar (telefon apparatlari, telematik xizmatlar, ma'lumotlar uzatish qurilmalarini, radiotelefonlar, radiouzaytirgichlarni, raqamni avtomatik aniqlagich (RAA) va hokazo)ni ikki tomonlama dalolatnoma tuzgan holda o'chirishga.

2.1.10 Abonent qurilmasini telekommunikatsiya tarmog'idan vaqtinchalik uzib qo'yish yo'li bilan telekommunikatsiya tarmog'idan foydalanishini to'xtatishga:

- Mahalliy, xalqaro va shaharlararo telekommunikatsiya tarmog'i xizmatlariga to'lovlar, o'chirib qo'yishdan oldin 10 kun ichida Abonentga bu haqida telefon orqali yoki yozma xabarnoma bilan ma'lum qilinib, belgilangan muddatida to'llanmaganda;

- Abonent tomonidan telekommunikatsiyalar Operatorining kommutatsiya uskunalari normal ishlashini buzilishga olib kelishi mumkin bo'lgan abonent qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzilganida;

- 2.2.7-band shartlari buzilganda, ikki tomonlama dalolatnoma tuzgan holda buzilishlar bartaraf etilgunga qadar;

Abonent qurilmalarining vaqtinchalik o'chirilishiga olib kelgan buzilishlar bartaraf etilgandan keyin, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq, shuningdek abonent qurilmasi Abonent aybi bilan ishlamagan vaqt uchun abonent to'lovi Abonent tomonidan to'langandan keyin bir kecha-kunduz ichida abonent qurilmasini ulash. Bunda ulash uchun to'lov olinmaydi.

2.1.11 Abonent tomonidan sotib olingan telematik xizmatlarning oxirgi qurilmalarini (telefaks, teleks, modem, videoteks, internet, ma'lumotlar uzatish va boshqalar) shartnomaga qo'shimchalar kiritgan holda (7-bo'limga binoan) ro'yxatga olishga.

2.1.12 Shartnoma shartlariga binoan, barcha ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlari uchun Abonent tomonidan to'lovlar to'liq to'langanda, uning xohishiga ko'ra shartnomani bir tomonlama bekor qilishga yo'l qo'yiladi. Agar Abonent tomonidan to'lovlar amalga oshirilmasa, shartnomani bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

2.2 Abonent quyidagilarga majbur:

2.2.1 O'z telefoni va/yoki boshqa oxirgi qurilmalardan amalga oshirilgan, ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlari (shu jumladan, tarmoqlarning texnik imkoniyatlari bilan belgilanadigan va barcha Abonentlar uchun ochiq bo'lgan telekommunikatsiyaning qo'shimcha xizmatlaridan, jumladan intellektual tarmoqlardan foydalanilganligi, ma'lumotlar uzatish va Internet, axborot resurslaridan foydalanish xizmatlari tarmog'idan parolsiz foydalanganligi) uchun o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish. Ushbu shartnomada ko'rsatilmagan va talabga binoan ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi tariflarga muvofiq haq to'lash.

2.2.2 Har oyda bir marotaba Operator bilan to'lovlar va qarzdorliklar to'g'risida o'zaro solishtirma dalolatnoma tuzish.

2.2.3 Operatorga tegishli yoki Operator tomonidan xizmat ko'rsatiladigan va Abonent foydalanayotgan telekommunikatsiya tarmog'ini va boshqa uskunalarini but va soz (ishga yaroqli) holatda saqlash. Abonentga tegishli yoki Abonent tomonidan ijaraga olingan telekommunikatsiyalar vositalarining texnik normalarga mosligini ta'minlash.

2.2.4 Aloqa buzilganligi to'g'risida telekommunikatsiya bog'lamasining ta'mirlash byurosiga telefon orqali o'z vaqtida xabar berish. 3 kungacha nosozlik bartaraf qilinmaganda telekommunikatsiya bog'lamasi boshlig'i nomiga yozma ravishda murojaat etish.

2.2.5 Bir oylik muddatda yozma ravishda sanani ko'rsatgan holda, Operatorga hisob raqamlarning, tashkilot nomining o'zgarishi, xonani ijaraga berilishi haqida xabar berish va amaldagi tarif bo'yicha to'lovlarni to'lash bilan shartnomani qaytadan tuzish yoki uni bekor qilish. Ijara muddati tugagandan yoki ijara shartnomasi bekor qilingandan so'ng telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma ijaraga oluvchidan ijaraga beruvchiga to'lovsiz rasmiylashtirilishi mumkin. Ijaraga beruvchi ijara shartnomasini bekor qilar ekan, ijarachining Operator oldidagi qarzlarning qoplanishini nazorat qiladi va qarzlarning mavjudligi uchun belgilangan tartibda javobgardir.

2.2.6 Operator xodimlarda tegishli, amal qilish muddatiga ega bo'lgan suratli, muhr bosilgan shaxsiy guvohnoma, ishlarni bajarish uchun naryad mavjud bo'lganda, Abonentning «Qoidalar»ga va ushbu shartnomaga rioya qilishini tekshirish yoki Abonent talabnomasi bo'yicha ta'mirlash ishlarini bajarish uchun ruxsat berish.

2.2.7 Abonent qurilmasidan taksofon sifatida yoki Internetga ulanib, pulli xizmatlar ko'rsatish uchun foydalanmaslik. Operator tomonidan ajratilgan telefon raqamlari orqali telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishni qonunda belgilangan tartibda amalga oshirish. Ushbu band buzilgan holda, Operator ikki tomonlama dalolatnomani rasmiylashtirish orqali buzilishlar bartaraf etilgunga qadar, Abonentning telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalanishini to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Qoidalar takror buzilganda shartnoma bir tomonlama bekor qilinadi.

2.2.8 Abonent o'zining abonent liniyasidan va oxirgi terminal qurilmasidan Internet tarmog'iga ulanish uchun foydalanayotgan va jumladan qayta ulanish dasturlariga ulangan vaqtdan boshlab u chiquvchi trafiklariga ham javobgardir.

2.2.9 Abonent qurilmasi sifatida faqat sertifikatlangan qurilmalardan foydalanish. O'zbekiston Respublikasining muvofiqlik sertifikati bo'lmagan raqamni avtomatik aniqlovchi (RAA) qurilmalarni qo'llamaslik.

2.2.10 O'zboshimchalik bilan oxirgi qurilmalarni o'rnatmaslik, parallel telefon apparatlari yoki boshqa radioaloqa, telematik xizmat va ma'lumotlarni uzatish oxirgi qurilmalarini ulamaslik. Ushbu qurilmalarni ulash Operator xabardor qilingandan so'ng va muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lganda amalga oshiriladi.

Abonent liniyasiga Operatorlarda ro'yxatga olinmagan abonent qurilmalari Abonent tomonidan o'zboshimchalik bilan ulangan vaqtini aniqlash mumkin bo'lmaganda, abonent to'lovi joriy yilning boshidan undiriladi.

2.2.11 Radiotelefonlar va boshqa radioelektron vositalarni (quvvati 10mVtdan ko'p bo'lmagan shnursiz telefonlardan tashqari) ularni ekspluatatsiya qilishga O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligidan yoki uning vakolatli organidan ruxsat olingandan va Operatorni xabardor qilingandan keyin abonent qurilmasi sifatida ulash.

2.2.12 Telekomunikatsiyalar tarmoqlarining ish sifatini pasayishiga yoki shikastlanishiga yo'naltirilgan harakatlar qilmaslik.

3. TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARIGA HAQ TO'LASH

3.1 Telekomunikatsiya xizmatlariga haq to'lash qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi va xizmatlar ko'rsatilgan paytda amalda bo'lgan tariflar bo'yicha haq to'lanadi.

3.2 Telekomunikatsiya xizmatlari uchun to'lovlar, bog'lamadagi hisob-kitob kassalarida, to'lovlarni qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan pochta aloqa bo'limlarida, bank muassasalarida naqd pul, plastik kartochka va pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3 Mahalliy, shaharlararo va xalqaro telekommunikatsiya xizmatlariga to'lov oldingi oy uchun to'lov summasining 100 foizi miqdorda quyidagicha amalga oshiriladi:

- oldindan haq to'lash yo'li bilan; *Ushbu summa yuzmisi 9000000 sum.*

- bevosita xizmatlar ko'rsatilgandan keyin;

3.4 Mahalliy tarmoq xizmatlaridan foydalanganlik uchun to'lov hisobot (joriy) oyining so'nggi sanasidan kechiktirmasdan amalga oshirilishi lozim. Oldindan haq to'lashni amalga oshirishda to'lovni qabul qilish bir oydan kam bo'lmagan, lekin 12 oydan oshmaydigan muddat uchun amalga oshiriladi.

3.5 Telekomunikatsiya xizmatlari uchun oldindan haq to'lashda avans to'lovining summasi buxgalteriya hisob-kitobi bo'yicha oyma-oy kamaytirilib boriladi.

Ushbu bandda ko'rsatilgan xizmatlar uchun tariflar oshganda, ular yuzasidan hisob-kitoblar avans summasi tugagunga qadar, agar ushbu xizmatlar yuzasidan to'lov universal xizmatlarga tariflar o'zgarganligi to'g'risida e'lon qilingungacha amalga oshirilgan bo'lsa, avvalgi tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

3.6 Mahalliy (xizmatlarga haq to'lashning vaqtbay tizimi), xalqaro va shaharlararo telekommunikatsiya xizmatlaridan, shu jumladan, ma'lumotlarni uzatish va telematik xizmatlardan foydalanganlik uchun to'lovni ham qo'shganda, to'lov hisob varaqasida ko'rsatilgan sanadan boshlab, 15 kun muddat ichida amalga oshiriladi.

3.7 Abonent hisobot davridan keyingi bir oy ichida telekommunikatsiya xizmatlariga haq to'lash bo'yicha, shu jumladan telefon o'chirilgan vaqt uchun qarzini to'lamasa yoki 2.2.7-band takror buzilsa, Operator telefon raqamini olib qo'yish va bu haqda Abonentni yozma ravishda kamida 10 kun oldin topshirilganligi to'g'risidagi xabarnoma bilan xabardor qilishi orqali shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqlidir. Telefon yoki boshqa qurilmalarni yangidan o'rnatish ariza berilgandan so'ng texnik imkoniyatlarga ko'ra, shartnoma bekor qilingan davrdagi Abonentning hisobidagi qarzlari uzilgandan keyin 12 oy ichida tarif bo'yicha o'rnatish haqining 50 foizi to'langandan so'ng amalga oshiriladi. Bu holatda umumiy asosda yangi telefon raqami beriladi.

3.8 Avtomatik mahalliy (telekommunikatsiya xizmatlariga haq to'lashning vaqtbay tizimida), xalqaro va shaharlararo telekommunikatsiya xizmati haqi to'lanadigan so'zlashuv vaqti chaqirilayotgan tarmoq orqali javob bergan har qanday shaxs bilan so'zlashuv boshlangan paytdan boshlab hisoblanadi. Agar telefonga ulangan qandaydir texnik qurilma (faks, avtojavob beruvchi, 2RAA va hokazo) bilan ulanish hollarida, haq to'lanadigan so'zlashuv vaqti qurilma bilan ulanish paytidan boshlab hisoblanadi.

3.9 Abonent to'lanishi lozim bo'lgan summadan, so'zlashuv davomiyligi yoki so'zlashuvning unga tegishliligidan norozi bo'lganda, hisob varag'ini olgandan keyin 45 kun davomida yozma ravishda shikoyat arizasini berish huquqiga ega. 45 kun o'tgandan keyin da'volar qabul qilinmaydi. Abonent tekshirish natijalaridan norozi bo'lsa sudga murojaat qilish huquqiga ega.

3.10 Shartnomaning 3.9-bandini tekshirish o'tkazilayotgan vaqtda telefon ulangan bo'lishi kerak.

3.11 Telekomunikatsiya oxirgi qurilmalari Abonentning aybi bilan ishlamagan vaqti uchun abonent to'lovi to'liq miqdorda undiriladi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1 Tomonlar shartnoma shartlarini buzganda javobgarlik O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolik kodeksi»ga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi, «Telekommunikatsiyalar to'g'risida»gi qonunlarga, «Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ida telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish Qoidalariga» va amaldagi boshqa qonunlarga shuningdek ushbu shartnomaga muvofiq belgilanadi.

5. E'TIROZ VA DA'VOLAR

5.1 Shartnoma shartlari talab darajasida bajarilmaganda Tomonlarning e'tiroz va da'volari o'zaro kelishuv yo'li bilan kelishuv bo'lmaganda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari asosida sud organlari orqali ko'rib chiqiladi.

6. FORS-MAJOR

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA VM41733317**

1.Loyianing turi: Xo'jalik shartnomasi.

2.Loyihaning nomi.

Loyiha **“Operator” “O‘zbektelekom” AK Surxondaryo filiali direktori Norqulov Shokir Xolturayvich Talabnoma beruvchi Denov tumani Tibbiyot Birlashmasi** Bosh shifokori Yusupov I.G.o‘rtasida Operator telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish, Abonent esa shartnoma shartlariga muvofiq ushbu xizmatlar uchun to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirish majburiyatini zimmasiga oladi. Abonentga ajratilgan abonent. 1).41-49-121;2).41-49-171;3).41-49-159 4).103 tez yordam raqamlari ulardan ma'lumot xizmatlari uchun 1).41-49-121; 2).41-49-171; 3).41-49-159 Ko‘rsatilgan xizmatlar to‘lovi bo‘yicha (9 000 000 (Tuqqiz million) shundan 1 173 913,04 (QQS)), belgilangan sifat darajasida telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish.

Shartnoma shakli, mazmun mohiyati va yuridik texnika talablariga rioya etilishi jixatidan, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan shartnoma predmeti, ko‘rsatiladigan xizmatning miqdori, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonunchilikda belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko‘ra o‘zaro kelishuvga erishish lozim bo‘lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutgan bo‘lib, shartnomani shakllantirishda yuridik texnika talablariga rioya etilgan.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Denov tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun 2022 yil 20 yanvarda kiritilgan.

X U L O S A

Loyiha O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Denov tuman Yuridik xizmat ko‘rsatish
markazi bosh yuriskonsulti:**
20/01/2022



A.B.Xatamov

VM41733317



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ

ТОШКЕНТ ШАҲАР

Юнусов

ТУМАН ҲОКИМЛИГИ

ЛИЦЕНЗИЯ

УС № 002310 *

Мазкур лицензия билан

OZBEKTELEKOM

Амударёлик компанияси га

УЛГУРЖИ САВДО ФАОЛИЯТИ ни амалга оширишга рухсат берилди.

Лицензия эгасининг жойлашган жойи (почта манзили): Юнусов тумани

Амир Темур кўчаси 24-уй

Солиқ туловчи-лицензия эгасининг идентификация рақами 203366731

Лицензия берилган сана 12.03.2006

Лицензиянинг амал қилиш муддати чекланмаган.

Реестр бўйича тартиб рақами 262

Ваколатли шахс: Юнусов тумани ҳокимининг биринчи ўринбосари

Б.С. Мусалла

(Ф.И.О.)

(имза)



Ишх. Лиц. ... лондан тасдиқланмаган нусхаси ҳақиқий ҳисобланмайди



YURIDIK SHAXSNI DAVLAT RO'YXATIGA O'TKAZISH TO'G'RISIDA

GUVOHNOMA

Reestr № **10-000240**

№ **004060**

2010 yil "19" iyul

Mazkur guvohnoma

"O'ZBEKTELEKOM"

yuridik shaxsga berildi

Tashkiliy-huquqiy shakli:

Ochiq aksiyadorlik jamiyati

THSHT (OPIΦ)

1150

Aksiyadorlik kompaniyasi

MSHT (ΦC)

144

Mulkchilik shakli:

Aksiyadorlar

Davlat ro'yxatidan o'tgan kundagi pochta manzili.

A. TEMUR SHOX KO'CHASI, 24-UY

MIHT (COATO)

1726266

Yuridik shaxs kodi

KTUT (OKHO)

17820078

Asosiy faoliyat turi

Elektr va radio aloqasi

XXTUT (OKOHX)

52300

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami

STIR (IHH)

203366731

Qo'shimcha ma'lumotlar

AVVAL, ADLIYA VAZIRLIGIDA 2000 YIL 10 AVGUSTDAGI

1317-SONLI REESTR RAQAMI BILAN RO'YHATGA OLINGAN

Vakolatli organ boshlig'i

S.M. Tairshikov

